

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA “EZGULIK” VA “YOVUZLIK” KONSEPTLARINING FREYMLI TAHLILI

Haydarov Shohqadam

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti.

shohqadamhaydarov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida “ezgulik” va “yovuzlik” konseptlarining freymli tahlili amalga oshirilgan. Bunda konsept etnomadaniy o‘ziga xos birliklar sifatida ko‘rib chiqilgan. Bunday aspektda o‘rganish muhim, chunki aynan asosiy tushunchalarda til egalarining dunyoqarashi, milliy kolorit yaqqol aks etadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, lingvopoetika, pragmatika, konsept, ezgulik, yovuzlik freym, slot.

Kognitiv lingvistika, tilni inson miyasi va fikrlash jarayonlari bilan bog‘laydigan ilmiy yondashuv bo‘lib, leksik va semantik strukturalarni tushunishda insonga xos bo‘lgan anglash va his qilish jarayonlarini o‘rganadi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi insonlarni o‘rab turgan muhitni, insoniyat tarixi va madaniyatini, urf-odatlarini o‘rganishda, anglab olishdagi ishtirokini aniqlash, inson ongidagi mavjud tajribaga suyanib, to‘plangan bilimni ma‘lum tartibga tushirish, uni boshqalarga uzatishda vositachilik qilayotgan tilning ahamiyatini tadqiq etishdir. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisini to‘ldiruvchi bu yo‘nalishlarning maqsadi inson nutqi va uning aloqaviy sifatlarini, aloqa, xabar, ta‘sir etish kabi ijtimoiy vazifalarning voqelanishida lisoniy vositalarning o‘rni va imkoniyatlarini aniqlashdir.¹ Aksiologik konseptlar, xususan, “ezgulik” va “yovuzlik”, keng ko‘lamda nutqda qo‘llaniladigan asosiy axloqiy kategoriyalar sifatida kognitiv lingvistika doirasida alohida o‘rganiladigan konseptlar sirasiga kiradi. Kognitiv yondashuvning lingvokulturologik aspektida “ezgulik” va “yovuzlik” etik konseptlari insoniyatning umumiy axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi.

Lingvokulturologiya fan sifatida jonli kommunikativ jarayonlarni – xalqning madaniyati va mentaliteti, ya‘ni uning ongi, shuuri, ommaviy an‘analari, urf-odatlarini bilan bog‘liq bo‘lgan lisoniy ifodalarning qo‘llanilishini tadqiq etadi.² Demak, lingvokulturologiya til va madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi va uning turli aspektlarini

¹Pardayev Z., Haydarov Sh. O‘zbek zamonaviy tilshunosligida kognitiv paradigmaning istiqbollari haqida. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14604300>. №2. – T.: 2025. 79-86 b.

² Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. -Toshkent, 2019. 33-bet.

o'rganadigan fan sifatida, "ezgulik" va "yovuzlik" kabi asosiy axloqiy konseptlarni o'rganishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushunchalar har bir xalqning aksiologik tizimini, ijtimoiy qadriyatlarini va dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy komponentlar bo'lib, ular til va madaniyat bilan chambarchas bog'liq.

"Ezgulik" va "yovuzlik" konseptlari tildagi leksemalar, frazeologik birliklar va maxsus madaniy ifodalar orqali til va madaniyatda o'z aksini topadi. Har bir tilning o'ziga xos "ezgulik" va "yovuzlik"ni tasavvur qilish va ifodalash usullari mavjud. Bu tushunchalar nafaqat axloqiy, balki falsafiy, sotsial va hatto diniy qirralarga ham ega bo'lib, har bir madaniyatda o'ziga xos tarzda shakllanadi. Lingvokulturologik tadqiqotlar "ezgulik" va "yovuzlik" konseptlarining tildagi aksini o'rganishda bir qator masalalarni qamrab oladi:

Til xalqning eng oliy qadriyati, g'urur manbaidir. Ona tili xalq borligi va birligining bosh ramzi, eng katta milliy-ma'naviy boylikdir. Ona tili xalqni xalq, millatni millat sifatida belgilovchi muqaddas mezon bo'lsa, uning milliy o'ziga xosligi, tarixiy o'tmishi va madaniyati, e'tiqod va an'analari, odob-axloqiy harakatlari, dunyoqarashini asrlar davomida o'zida mujassam etgan bebaho milliy boylik sifatida ham qadrlanadi. Barcha xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham tili uning milliy mavjudligini belgilovchi asosiy omillardan biridir³

Til madaniyatida "ezgulik" va "yovuzlik"ning o'ziga xos xususiyatlari – turli xalqlar va madaniyatlarda ularining qanday farqlanishi, ta'riflanishi va ularning amaliy ifodalari asosida belgilanadi. Masalan, 1) "ezgulik" va "yovuzlik"ni ifodalovchi **lisoniy ifodalar**: frazeologik birliklar, maqollar, aforizmlar, metaforalar va ularning ma'nolari madaniy xususiyatlar bilan qanday bog'langanligini tahlil qilish; 2) **madaniyatlararo taqqoslash** – bir xalqning "ezgulik" va "yovuzlik" tushunchalari boshqasiga nisbatan qanday farq qiladi va bu farqlar tildagi ifodalarda qanday aks etadi. Shu sababli, "ezgulik" va "yovuzlik" konseptlarini lingvokulturologiya nuqtai nazaridan tadqiq etishda, nafaqat tilning ifoda vositalari, balki ularning jamiyatdagi, shaxslararo va etnik munosabatlardagi o'rni, qadriyatlar tizimi bilan bog'liq holatlarni ham chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv asosida "ezgulik" va "yovuzlik" tushunchalarining qanday shakllanganini va ular tildagi tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlar bilan qay tarzda bog'liqligini, insoniyatning axloqiy va madaniy rivojlanishini o'rganish muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki. "ezgulik" va "yovuzlik" tushunchalar umumiy mazmunida dunyoning ko'plab xalqlari diniy e'tiqodlarida, qadimgi mifologiyasida mujassamlashgan. Bugungik unda "ezgulik" va "yovuzlik" tushunchalariga turli xil talqinlar mavjud. Falsafiy ensiklopedik lug'atga ko'ra, yaxshilik va yomonlik - «axloqiy ongning normativ baholovchi kategoriyalari bo'lib, eng umumiy shaklda bir

³ Yuldashev, M. and Haydarov, Sh. 2022. The Terms of Concept and Its Interpretations in Linguistics. International Journal on Integrated Education. 5, 6 (Jun. 2022), 455-461. <https://www.neliti.com/publications/412326/the-terms-of-concept-and-its-interpretations-in-linguistics>

tomondan, kerakli va axloqan ijobiy, yaxshilikni, boshqa tomondan esa axloqan salbiy va tanqidiy, odamlar harakatlari va motivlarida, ijtimoiy haqiqatda salbiy hodisalarni anglatadi»⁴. Bu lug'atda "ezgulik" va "yovuzlik" – tabiiy hodisalarda namoyon bo'ladigan, insonga bog'liq bo'lmagan metafizik hodisalar sifatida; inson tomonidan jamiyatda namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisalar sifatida; axloqiy va ma'naviy hodisalar sifatidagi kategorial belgilari ko'rsatiladi. Ezgulik etikaning eng muhim kategoriyalaridan biri hisblanadi. "Ezgulik" va "yovuzlik" **tushunchalari nafaqat falsafa va madaniyatshunoslikda, balki zamonaviy tilshunoslikda ham alohida tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda.** Bu tushunchalarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, ularni tizimlashtirish va tasniflashga qaratilgan izlanishlar axloqiy kategoriyalarni chuqur o'rganishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tilshunoslikda tushunchalarni semantik va madaniy qatlamda o'rganish ularga beriladigan ijtimoiy, madaniy hamda ma'naviy baholarning tahliliga yo'l ochadi.

"Ezgulik" va "yovuzlik" **har qanday jamiyatning asosiy axloqiy-ma'naviy tayanch tushunchalaridir.** Ular "qadriyat", "axloq", "odob" kabi asosiy tushunchalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insoniyat tafakkurining doimiy e'tiborida bo'lgan konseptual kategoriyalardandir. Bu tushunchalarning mazmuni va kontseptual belgilarining shakllanishiga turli omillar, jumladan, **axloqiy-etik, ijtimoiy, siyosiy, etniklararo, shaxslararo munosabatlar, iqtisodiy sharoit** va boshqa ijtimoiy-madaniy omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar "ezgulik" va "yovuzlik" kabi tushunchalarning mazmunini jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va axloqiy normalariga ko'ra boyitadi yoki o'zgartiradi. Shu nuqtai nazardan, "ezgulik" va "yovuzlik" tushunchalari kognitiv tilshunoslik va kontseptologiya doirasida ham chuqur o'rganilmoqda. Bu tushunchalar nafaqat leksik birliklar sifatida, balki kognitiv strukturalar, ya'ni inson tafakkuridagi axloqiy model va qadriyatlarning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Til bu tushunchalarni ifodalovchi vosita sifatida insonning madaniy, axloqiy va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi. Masalan, L.A.Blinova va N.A.Kupina tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko'ra, axloqiy konseptlar bir necha guruhlariga ajratiladi. Ularga quyidagilarni kiritadi: a) **umuminsoniy qadriyatlar** (adolat, ezgulik, vijdon, erkinlik); b) **shaxsiy axloqiy fazilatlar** (halollik, sadoqat, sabr, kamtarlik); v) **ijtimoiy xatti-harakatlar mezonlari** (hurmat, javobgarlik, hamjihatlik); g) **yomonlik ifodasi** (yolg'on, xiyonat, zulm, loqaydlik).⁵

Bu kontseptlar har bir til va madaniyatda o'ziga xos tarzda ifodalanadi, biroq ularning asosiy mohiyati – inson axloqiy tafakkurining universal komponentlari sifatida mavjud bo'lib qoladi. Shu boisdan, tilshunoslikdagi kontseptual yondashuv, ya'ni tushunchalarni lug'aviy emas, balki kognitiv va madaniy qatlamda tahlil qilish – zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu

⁴ Фалсафа: энциклопедик луғат. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent. 2010

⁵ Блинова Л.А., Купина Н.А. Нравственные концепты в лексическом освещении (по материалам совр. публицистики) // Функциональная семантика слова. Екатеринбург, 1993. С 20-31.

tushunchalarni o'rganish jarayonida biz, eng avvalo, **til egalarining ichki dunyoqarashi, ularning milliy xarakteri, til ongining kognitiv xususiyatlari**, shuningdek, **har bir til madaniyatiga xos milliy-madaniy jihatlarni** e'tiborga oldik. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, **milliy xarakter** inson tomonidan biologik meros sifatida emas, balki **tarbiya, ijtimoiy tajriba va madaniy muhit** ta'sirida shakllanadigan psixologik-ijtimoiy hodisadir. Demak, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, **axloqiy tushunchalarning milliy talqini** har bir xalqning ijtimoiy ongida qanday shakllanayotganini tahlil qilishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Aytish joizki, milliy xarakterni bevosita milliy psixologiya yoki etnosning ruhiyati bilan chog'ishtirib bo'lmaydi. U jamiyat a'zolarining kundalik hayotdagi xatti-harakatlari, odatlari, urf-odatlar, estetik didi va madaniy qadriyatlari orqali namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Milliy xarakter insonlarga xos psixologik xususiyatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonida, ma'lum bir ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan ifodasi hisoblanadi. Bu biogenetik omillardan ko'ra, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy tajribaning mahsuli hisoblanadi.

Kognitiv lingvistikada **freym** – ma'lum bir konseptni tashkil etuvchi tipik vaziyat, ishtirokchilar, harakatlar va ularning o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi bilim modeli hisoblanadi. Shu asosda biz Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida “ezgulik” va “yovuzlik” konseptlarini freymli model asosida tahlil etishga harakat qilamiz. Aytish lozimki, **“ezgulik”** konseptining tushuncha tarkibi barcha ijobiy, yorqin, yoqimli, muvaffaqiyatli, foydali narsalarni, ya'ni foyda keltiradigan yaxshi ish va amallarni ifodalaydi. Yozuvchi hikoyalarda “ezgulik” konsepti insonning axloqiy-ijtimoiy qadriyat sifatida boshqalarga nisbatan beg'araz, foydali va rahm-shafqatli munosabatini ifodalashda asosiy g'oya hisoblanadi. Fikrimiz isboti sifatida Shukur Xolmirzayevning “Notanish odam” hikoyasida ezgulik konseptining freym tahliliga qaratamiz. Hikoyada ezgulikni – abstrakt kategoriya sifatida – shaxs orqali tushuntiradi. **“Ezgulik”** konsepti “Notanish odam” freymi yozuvchining individual-muallif konseptosferasida: insoniylik, nasihat, qutqaruvchi g'amxo'rlik, saxovat, oldindan o'ylash va beg'araz yordam kabi slotlarni o'z ichiga oladi. Bu konsept muallif tomonidan ochiq targ'ib qilinmaydi, balki qahramon xatti-harakatlari orqali bilvosita namoyon bo'ladi. “Ezgulik” konseptining asosiy freymi hikoyada quyidagi umumiy vaziyat asosida shakllanadi: Yomg'irda qolgan yo'lovchiga notanish odam tomonidan tanbeh, nasihat, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilishi. Bu freym quyidagi **slotlar** (tarkibiy qismlar) orqali amalga oshadi:

Subyekt (ezgulikni amalga oshiruvchi), ya'ni, notanish odam, tajribali, kuzatuvchan, tabiatni tushunadigan kishi, yosh jihatdan katta, hayotiy donishmandlikka ega. U ezgulikni so'z bilan emas, amal bilan ko'rsatadi.

Obyekt (ezgulik yo'naltirilgan shaxs), ya'ni, hikoyachi (yigit), tajribasiz, hissiyotga beriluvchan, dastlab g'ururi kuchli, tanqidni qabul qilmaydi. Ezgulik obyektiga nisbatan o'rgatuvchi va tarbiyaviy xarakterga ega.

Sabab (ezgulikni yuzaga keltirgan holat), yomg'ir, yo'lovchining noiloj ahvoli, ov va noqulay sharoit. Ezgulik tasodifiy emas, **real hayotiy ehtiyoj** natijasida yuzaga keladi.

Harakat (ezgulikning ifodalanishi), ya'ni, nasihat berish (bulut, yomg'ir haqidagi tushuntirish), o'tin terib kelish, olovni yoqib qoldirish, non va qurt bilan dasturxon yozish, "isina bering" deya g'amxo'rlik qilish. Ezgulik **ko'p qirrali**: bilim, mehnat, saxovat va g'amxo'rlikni o'z ichiga oladi.

Maqsad (ezgulikning ichki motivatsiyasi), ya'ni, faqat hikoyachi uchun emas, kelajakdagi barcha yo'lovchilar uchun, sovuqda qolmaslik, omonlik. Ezgulik individual emas, ijtimoiy yo'naltirilgan.

Natija (ezgulik samarasi), ya'ni, hikoyachining ichki o'zgarishi, g'ururning sinishi, minnat va hurmat tuyg'usi, ezgulikni kech anglash. Ezgulikning asosiy natijasi – ma'naviy uyg'onish. Bu o'rinda "ezgulik" konsepti "Notanish odam" timsolida freim bo'lib shakllanadi.

Z.D.Popova va I.A.Sternin konsept tuzilishini **yadro va periferiyaga** ega bo'lgan doira shaklida tasvirlaydilar. Olimlar fikricha, konsept yadrosini asosiy tushuncha, ya'ni lug'aviy ta'riflarda qayd etilgan semalar tashkil etadi, uning periferiya qismini esa madaniyat ta'siri ostida shakllanuvchi semantik belgilar tashkil qiladi. "Notanish odam" hikoyasida **ezgulik** konseptining yadroviiy (markaziy): *beg'arazlik, oldindan o'ylash, g'amxo'rlik, saxovat* va periferik (yaqin va uzoq): *nasihat ohangi, tabiat bilan uyg'unlik, sukut orqali ta'sir qilish, kamtarlik (minnat kutmaslik)* semantik belgilarini mezon sifatida ko'rsatish mumkin. Shu tariqa, **yadro zonada** "harakat" belgisiga to'g'ri keladi. Demak, "Notanish odam" hikoyasida **ezgulik** – balandparvoz so'zlar emas, kundalik hayotdagi oddiy, ammo chuqur ma'noli harakatlar majmui sifatida talqin etiladi. Notanish odam freymi orqali muallif ezgulikni: ko'z-ko'z qilinmaydigan, mukofot kutmaydigan, lekin insonni ichidan o'zgartira oladigan kuch sifatida tasvirlaydi.

Shukur Xolmirzayevning "Jarga uchgan odam" hikoyasida "yovuzlik" konsepti murakkab semantik tuzilishga ega bo'lib, "Ismoil Yusupovich" freymi orqali reallashadi. U bir nechta asosiy slotlar vositasida ketma-ketlikda namoyon bo'ladi.

1. Subyekt sloti (Kim yovuzlikni amalga oshiradi?). Yovuzlik subyekti sifatida "Ismoil Yusupovich" freymi maydonga chiqadi. U shahardan kelgan kinorejissyor bo'lib, o'zini madaniyatli, o'qimishli inson sifatida ko'rsatadi. Biroq uning tabiatga munosabati utilitar va manfaatparast xarakterga ega. Yovuzlik bu yerda johillikdan emas, balki ma'naviy befarqlik va manfaatchilikdan kelib chiqadi. Bu slot yovuzlikning ongli va ijtimoiy maqbul ko'rinish ortiga yashiringan shaklini ochadi.

2. Obyekt sloti (Yovuzlik nimaga yoki kimga qaratilgan?). Ona ayiq bunda bevosita obyekt, bilvosita obyekt esa ayiqchalar, ya'ni tabiat, hayot davomiyligi hisoblanadi. Ona ayiqning bolalari bilan tasvirlanishi yovuzlikni yanada keskinlashtiradi, chunki bu holatda zo'ravonlik nafaqat hayotga, balki ona va farzand

muqaddasligiga ham qarshi qaratilgan. Bu slot orqali yovuzlik hayot uzluksizligini buzuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

3. Motiv sloti (Nima sabab yovuzlikni keltirib chiqaradi?). Ayiq terisini olish istagi; xotiniga "sovg'a" qilish niyati; "davlatniki" degan bahona; shaxsiy manfaatni ustun qo'yish. Ismoil Yusupovich uchun tabiat, axloqiy qadriyat emas, balki manfaat. Yovuzlikning ildizi bu yerda ochiq tajovuz emas, balki ma'naviy qadriyatlarning yo'qligi bilan bog'liq.

4. Harakat sloti (Yovuzlik qanday amalga oshiriladi?). Ogohlantirishlarni rad etish; miltiqqa qo'l cho'zish; ongli ravishda o'q uzish. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanadi va yovuzlikning tasodifiy emasligini ko'rsatadi. Bu o'rinda yovuzlik axloqiy tanlov natijasida yuz beradi.

5. Vosita sloti (Yovuzlik qaysi vosita orqali amalga oshiriladi?). Miltiq asosiy vosita. Miltiq hikoyada faqat qurol emas, balki, insonning tabiatdan ustun qo'yilgan qudrati; zo'ravon sivilizatsiya ramzi. Bu slot texnik taraqqiyotning axloqdan ajralib qolishi yovuzlikni kuchaytirishini ko'rsatadi.

6. Natija sloti (Yovuzlik nimaga olib keladi?). Ona ayiqning o'limi; ayiqchalarning yetim qolishi; Islomning ruhiy larzasi; tabiatning ramziy "faryodi". Yovuzlik individual hodisa bo'lib qolmaydi, balki axloqiy muvozanatni buzadi.

7. Aksiologik baho sloti Muallif yovuzlikni qanday baholaydi?). Ismoil Yusupovichning jarga qulab halok bo'lishi – bu yovuzlikning muqarrar jazolanishi ramzi. Muallif pozitsiyasida yovuzlik kechirilmaydigan axloqiy jinoyat sifatida baholanadi.

"Jarga uchgan odam" hikoyasida yovuzlik konseptining freym tahlili shuni ko'rsatadiki,; ongli subyektga ega; aniq obyektga qaratilgan; manfaatparast motivlar bilan asoslangan; qurol vositasi orqali amalga oshirilgan; og'ir axloqiy va hayotiy oqibatlarga olib kelgan. Demak, yovuzlik konsepti bu asarda insonning tabiat bilan axloqiy aloqasi uzilishi natijasida yuzaga keladigan halokatli hodisa sifatida konseptuallashtirilgan.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev hayot manzarasini izchil anglagan, inson ruhiyatidagi ichki kechinmalarni inja nuqtalarini his etadigan yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchi asarlaridagi zid qutbli etnomadaniy konseptlarni o'rganish ma'lum nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek milliy xarakteriga xos odamiylik, mehmondo'stlik, ochiqko'ngillik, xalqparvarlik, qadriyatlarni anglash kabi g'oyalar yozuvchi asarlarining asosini tashkil qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Блинова Л.А., Купина Н.А. Нравственные концепты в лексическом освещении (по материалам совр. публицистики) // Функциональная семантика слова. Екатеринбург, 1993. С 20-31.

2. Pardayev Z., Haydarov Sh. O‘zbek zamonaviy tilshunosligida kognitiv paradigmaning istiqbollari haqida. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14604300>. №2. – T.: 2025. 79-86 b.
3. Словарь по этике / Под ред. И.С. Кона. 5-е изд. М.: Политиздат, 1983. 445 с
4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. -Toshkent, 2019. 33-bet.
5. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent. 2010
6. Yuldashev, M. and Haydarov, Sh. 2022. The Terms of Concept and Its Interpretations in Linguistics. International Journal on Integrated Education. 5, 6 (Jun. 2022), 455-461. <https://www.neliti.com/publications/412326/the-terms-of-concept-and-its-interpretations-in-linguistics>